Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts .....	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi .....	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati .....	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	<a href="#">Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</a>	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	<a href="#">Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</a>	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	<a href="#">G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi</a>	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	<a href="#">Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</a>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	<a href="#">Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</a>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	<a href="#">Iminova Z. B.</a>	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	<a href="#">Inayatova Nargisa Nishonboyevna</a>	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	<a href="#">Kalmuratovna Venera Sultanova</a>	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	<a href="#">Kamola Abdullayeva</a>	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	<a href="#">Karimov Orif Obloqul o'g'li</a>	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	<a href="#">Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</a>	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	<a href="#">Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</a>	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	<a href="#">Makulov Shuxratjon Zokirovich</a>	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	<a href="#">Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</a>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	<a href="#">Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</a>	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	<a href="#">Mansurova Umida Mansur qizi</a>	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	<a href="#">Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</a>	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	<a href="#">Murodov Nozimjon Olimjonovich</a>	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	<a href="#">Nafasova Jamila Turg'un qizi</a>	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	<a href="#">Najmiddinova Gulnoza Odilovna</a>	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	<a href="#">Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</a>	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	<a href="#">O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</a>	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	<a href="#">Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</a>	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	<a href="#">Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</a>	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	<a href="#">Ostanov Askarjon Nuriddinovich</a>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari .....	1117
Parnonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta‘lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari .....	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta‘limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta‘sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi .....	1143
Rahmonova Dilafroz Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish .....	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta‘lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence .....	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi .....	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari .....	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta‘lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati .....	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis .....	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi .....	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2 .....	1204
Сагиндигов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе .....	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся .....	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta‘siri .....	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta‘lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish .....	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta‘lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari .....	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati .....	1229
Eshbekova Gulbahor	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
<a href="#">G'afforova Xurriyat Yangiboyevna</a>	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
<a href="#">Jabbarova Dilafro'z Bo'riyevna</a>	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training .....	1242
<a href="#">Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna</a>	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
<a href="#">Maxmudov Azamjon Muxtorovich</a>	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
<a href="#">Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'Ichiyev Shaxriyor Xusanovich</a>	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish .....	1254
<a href="#">Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna</a>	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi .....	1259
<a href="#">Raxmatov A'zam Ashur o'g'li</a>	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida .....	1262
<a href="#">Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni .....	1268
<a href="#">Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi</a>	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages .....	1272
<a href="#">Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</a>	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar .....	1276
<a href="#">Sharipova Sarvinoz Sayid qizi</a>	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
<a href="#">Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati .....	1283
<a href="#">Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</a>	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
<a href="#">Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna</a>	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi .....	1289
<a href="#">Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</a>	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России .....	1293
<a href="#">Сярова Айнур Ибодуллаевна</a>	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
<a href="#">Kilichev Nurulla Abbosovich</a>	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
<a href="#">Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</a>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari .....	1303
<a href="#">Abdushukurova Mushtariy</a>	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
<a href="#">G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</a>	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
<a href="#">Нумонжонova Фарангиз Комиловна</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli .....	1314
<a href="#">Choriyeva Xurmo Panji qizi</a>	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi .....	1316
<a href="#">Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari.....	1321
<a href="#">Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi</a>	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
<a href="#">Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</a>	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyani o'rganish va korreksiyalash .....	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari .....	1333
<i>Mirzayeva Dilafuz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari .....	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri .....	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education .....	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari .....	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida .....	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari .....	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari .....	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboiyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT .....	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega .....	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti .....	1405
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari .....	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar .....	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida) .....	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	



Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida).....	1419
<a href="#">Sotkulova Dildora Odinabekovna</a>	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati .....	1423
<a href="#">Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova</a>	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish .....	1427
<a href="#">Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida</a>	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar .....	1430
<a href="#">Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna</a>	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli .....	1436
<a href="#">Yunusova Diloramxon Abdumajitovna</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari .....	1440
<a href="#">Aripova Nodira Shuxratovna</a>	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста .....	1444
<a href="#">Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari .....	1449
<a href="#">Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi</a>	
Virtual modellashtirish asosida o'quvchilarning arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	1454
<a href="#">Abdullayev A'zamjon Komolxanovich</a>	
Analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tizimli yondashuvning prinsiplari .....	1458
<a href="#">Amanova Gulxayo Dilmurod qizi</a>	
O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash (PISA) dasturlarining roli.....	1462
<a href="#">Axmedova Mastura Maxmudovna, Abdumalikova Zamira Dilmurod qizi</a>	
O'yin faoliyatida erkinlik va maqsadlilik uyg'unligi: ijodiy tafakkurni rivojlantirish omili sifatida.....	1465
<a href="#">Baxriddinova Yulduz Abror qizi</a>	
Incorporating Culture-Sensitive Communicative Tasks in EFL Courses.....	1468
<a href="#">Guzal Ismailova</a>	
Ingliz tilini o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish texnologiyasi .....	1471
<a href="#">Ibragimova Sevara Baxodirovna</a>	
Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish: imkoniyatlar, cheklovlar va istiqbollor .....	1474
<a href="#">Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</a>	
Erta yoshda ingliz tilini o'yin va TPR metodlari asosida o'rgatish samaradorligi .....	1478
<a href="#">Kadirova Nilufar Tursinbayevna</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlarini o'rganish .....	1481
<a href="#">Karayeva Y. X.</a>	
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi.....	1484
<a href="#">Nazarova Mavluda Uktamovna, Botirova Ozoda Baxodir qizi</a>	
Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etishda metoddan foydalanish – ijodiy fikrlashni rivojlantirish .....	1487
<a href="#">Nazarova Mohigul Akmalovna, Raxmonova Fariza Suxrobovna</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati .....	1493
<a href="#">O'rinboeva Lolaxon O'ktamovna, Nazarov Ilhomjon Usmanalievich</a>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (Finlyandiya va Singapur tajribasi asosida).....	1496
<a href="#">Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashgan darslarni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	1500
<a href="#">Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna</a>	
Ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv ko'nikmalarini oshirishning metodik asoslari .....	1504
<a href="#">Qurbonova Barnoxon</a>	
Ta'lim tizimida marketing .....	1508
<a href="#">T. Seydemetov</a>	
Xorijiy tillarning o'qitilishida boshqa tillarning roli va o'qitish metodikasi.....	1515
<a href="#">Tashxodjayeva Patima Bakiyevna</a>	



Integrating Social and Linguistic Skills in English Teaching Instruction is the Key to Improving Holistic Language Competence.....	1518
<a href="#">Zaylobidinova Munira Gulomovna</a>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limidagi o'rni .....	1523
<a href="#">Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi</a>	



## MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANINI O'QITISH: IMKONIYATLAR, CHEKLOVLAR VA ISTIQBOLLAR

Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi

Farg'ona davlat universiteti

“Zoologiya va umumiy biologiya” kafedrası o'qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy ta'lim sharoitida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishning nazariy va amaliy jihatları tahlil qilingan. Tadqiqot xalqaro va mahalliy tajriba asosida masofaviy ta'limning pedagogik, texnologik va didaktik xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Maqolada an'anaviy va masofaviy ta'lim metodlarining qiyosiy tahlili, raqamli vositalarning samaradorligi va ularning cheklovlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim nazariy bilimlarni yetkazishda samarali bo'lsada, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda aralash ta'lim (blended learning) modeli maqsadga muvofiqroq hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, anatomiya, fiziologiya, raqamli pedagogika, tibbiy ta'lim, aralash ta'lim, virtual ta'lim texnologiyalari.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of teaching Human Anatomy and Physiology in a distance learning format. The study examines the pedagogical, technological and didactic features of distance learning based on international and local experience. The article discusses a comparative analysis of traditional and distance learning methods, the effectiveness of digital tools, and their limitations. The results of the study show that although distance learning is effective in delivering theoretical knowledge, the blended learning model is more appropriate for developing practical skills.

**Key words:** distance learning, anatomy, physiology, digital pedagogy, medical education, blended learning, virtual educational technologies.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические и практические аспекты преподавания анатомии и физиологии человека в дистанционной форме обучения. В исследовании рассматриваются педагогические, технологические и дидактические особенности дистанционного обучения на основе международного и отечественного опыта. В статье обсуждается сравнительный анализ традиционных и дистанционных методов обучения, эффективность цифровых инструментов и их ограничения. Результаты исследования показывают, что, хотя дистанционное обучение эффективно в передаче теоретических знаний, модель смешанного обучения является более целесообразной для формирования практических навыков.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, анатомия, физиология, цифровая педагогика, медицинское образование, смешанное обучение, виртуальные образовательные технологии.

### KIRISH

XXI asr boshlaridan e'tiboran oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi kuzatilmoqda. 2020-yil mart oyidan boshlab COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimini tezkor masofaviy formatga o'tishga majbur qildi (UNESCO, 2020). Bu jarayon odam anatomiyasi va fiziologiyasi kabi fundamental fanlarni o'qitishda yangi muammolar va savollarni keltirib chiqardi. Anatomiya va fiziologiya fanlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular an'anaviy ravishda intensiv amaliy mashg'ulotlar, anatomik preparatlar bilan bevosita ishlash va laboratoriya tajribalarini talab qiladi. Masofaviy formatga o'tish ushbu fanlarni o'qitish metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Maqsad: Masofaviy ta'lim sharoitida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslarini, samarali metodlarini va cheklovlarini aniqlash.



Vazifalar:

- 1) Masofaviy ta'limning pedagogik va didaktik xususiyatlarini tahlil qilish;
- 2) Anatomiya va fiziologiyani o'qitishda qo'llaniladigan raqamli vositalarni sistemalashtirish;
- 3) An'anaviy va masofaviy ta'lim metodlarining qiyosiy tahlilini o'tkazish;
- 4) Masofaviy ta'limning cheklovlari va muammolarini aniqlash;
- 5) Blended learning modelining samaradorligini asoslash.

Anatomiya va fiziologiyani o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Anatomiya – bu tibbiy ta'limning fundamental fani bo'lib, tana tuzilishi to'g'risidagi bilimlarni o'rgatadi. Fiziologiya esa organizm funksiyalari va jarayonlarini o'rganadi. Ushbu fanlarni o'qitishda vizual-fazoviy tasavvur zarurligi muhim ahamiyatga ega, chunki anatomik tuzilmalarni uch o'lchamli tasavvur qilish qobiliyati talab etiladi <sup>[13]</sup>. Shuningdek, amaliy ko'nikmalar – palpatsiya, diseksiya va anatomik strukturalarni real ko'rish tajribasi klinik amaliyot uchun juda muhimdir <sup>[14]</sup>. Masofaviy ta'lim jarayonida turli xil texnologiyalardan foydalaniladi. Bularni bir necha guruhga bo'lib o'rganish mumkin, jumladan 3D vizualizatsiya va virtual modellar. Zamonaviy 3D texnologiyalar anatomik tuzilmalarni turli burchaklardan ko'rish, ajratib ko'rsatish va virtual diseksiya o'tkazish imkonini beradi. Bir qator tadqiqotlar 3D modellarning anatomiya o'qitishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Khot va boshqalar tomonidan o'tkazilgan meta-analiz shuni ko'rsatdiki, 3D vizualizatsiya an'anaviy 2D rasmlarga nisbatan fazoviy tasavvurni rivojlantirishda statistik jihatdan ishonchli afzallikka ega ( $p < 0.05$ ) <sup>[6]</sup>. Biroq bu tadqiqot 3D texnologiyalarining barcha holatda ustunligini isbotlamagan – murakkab anatomik munosabatlarni tushunishda 3D modellar samaraliroq, ammo oddiy strukturalarni eslab qolishda farq kuzatilmagan. Petersson va boshqalar Virtual Reality (VR) texnologiyalarini qo'llagan guruhda nazariy bilimlar o'zlashtirish darajasining 12–15% yuqori bo'lganini aniqlashgan, biroq amaliy ko'nikmalar (palpatsiya, anatomik landmarklar) real preparatlar bilan ishlagan guruhga nisbatan 18–22% past bo'lganini qayd etishgan <sup>[12]</sup>.

Virtual laboratoriyalar fiziologik jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Bir qator tadqiqotlar ularning pedagogik samaradorligini o'rgangan <sup>[1]</sup>. PhysioEx virtual laboratoriyasidan foydalangan talabalar ( $n=120$ ) bilan an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarida ishtirok etgan talabalar ( $n=115$ ) orasida yakuniy baholarda statistik jihatdan sezilarli farq topilmagan ( $p=0.42$ ). Bu virtual laboratoriyalarning nazariy tushunchalarni o'rgatishda an'anaviy metodlarga alternativa bo'la olishini ko'rsatadi. Biroq Limniou va boshqalar amaliy laboratoriya ko'nikmalarini baholashda real tajribadan o'tgan talabalar sezilarli yuqori natijalarga erishganini ( $p < 0.01$ ) qayd etganlar <sup>[9]</sup>. Bu virtual va real laboratoriyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Video-asoslangan ta'lim ham masofaviy ta'limning asosiy vositalaridan biridir. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasiga ko'ra, inson miyasi verbal va vizual axborotni parallel qayta ishlaydi (dual coding theory) <sup>[10]</sup>. Kay meta-analizi ( $n=4\ 229$  talaba) quyidagi xulosalarni beradi: optimal video uzunligi 6–9 daqiqa, 12 daqiqadan uzun videolarda diqqat 40–50% kamayadi, interaktiv elementlar esa o'zlashtirish darajasini 20–25% oshiradi <sup>[7]</sup>.

LMS platformalari (Moodle, Canvas, Blackboard) ta'lim jarayonini tizimlashtirish va nazorat qilish imkonini beradi. McGarr va Johnston tadqiqotida LMS foydalanish o'qituvchi–talaba va talaba–talaba o'rtasidagi interaksyani 35–40% oshirishi qayd etilgan <sup>[11]</sup>. Biroq LMS samaradorligi uning to'g'ri tashkil etilishi va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasiga bog'liq.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masofaviy ta'limning samaradorligi bo'yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlar raqamli texnologiyalar anatomiyaning o'qitishda muhim imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Petersson va hamkorlari tomonidan 2009-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda 3D vizualizatsiya vositalari anatomiya tuzilmalarini fazoviy idrok etishni sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan. Khot, Quinlan, Norman va Wainman 2013-yilgi tadqiqotida kompyuter asosidagi o'quv resurslari an'anaviy 2D tasvirlarga nisbatan o'zlashtirish samaradorligini oshirganini qayd etgan. Mayer tomonidan 2009-yilda ishlab chiqilgan multimedia ta'lim nazariyasi ham masofaviy o'qitishda vizual–verbal kanallarni birgalikda qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masofaviy ta'limning eng katta muammolaridan biri ekanini qator tadqiqotlar tasdiqlaydi. Estai va Bunt 2016-yilgi ilmiy sharhida anatomiyaning o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning o'rnini virtual vositalar to'liq bosa olmasligi ta'kidlangan. Sugand, Abrahams va Khurana 2010-yilgi tadqiqotlarida anatomik preparatlar bilan ishlash klinik tayyorgarlik sifatiga bevosita ta'sir qilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, Limniou va Roberts 2009-yilda virtual laboratoriyalar samaradorligini o'rgangan bo'lsada, real laboratoriya jarayonlari talabalar uchun ko'proq amaliy kompetensiya shakllantirishini qayd etgan.

Raqamli vositalar bilan birga, aralash ta'limning o'rnini ilmiy adabiyotlarda alohida e'tirof etiladi. Graham tomonidan 2006-yilda ta'riflangan blended learning modeli keyinchalik Hrastinski tomonidan 2019-yilda yanada

takomillashtirilgan bo'lib, nazariy ma'lumotlarni onlayn shaklda, amaliy mashg'ulotlarni esa an'anaviy formatda tashkil etish eng optimal yondashuv ekanligi asoslangan. Rowe, Frantz va Bozalekning 2012-yilgi tahliliy tadqiqotida tibbiy ta'limda aralash o'qitish talabalarning qoniqish darajasini oshirishi, vaqt samaradorligini yaxshilashi, nazariy hamda amaliy o'zlashtirishda esa barqaror natija berishini ko'rsatgan. Bączek va hamkorlarining COVID-19 pandemiyasi davrida olib borgan tadqiqoti masofaviy ta'limning psixologik bosimga ham ega ekanini, shu sababli aralash modelning yanada maqbul ekanini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi:

- adabiyotlar tahlili va kontentni sistematik ko'rib chiqish;
- qiyosiy-tahliliy metod;
- pedagogik kuzatish;
- xalqaro va mahalliy tajribani umumlashtirish.

Tadqiqot davomida 2015–2024-yillar oralig'ida nashr etilgan, Web of Science, Scopus, PubMed bazalarida indekslangan 150 dan ortiq xalqaro maqolalar tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston va MDH mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarining tajribasi o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Masofaviy ta'lim jarayonida o'qitishda bir qator cheklovlar mavjud. Eng katta muammolardan biri – amaliy ko'nikmalarni to'liq rivojlantirish imkoniyatining cheklanganligidir. Sugand va boshqalar tadqiqotida faqat virtual vositalar bilan o'qigan talabalar ( $n=85$ ) anatomik landmarklar palpatsiyasida 67% aniqlikka erishgan bo'lsa, an'anaviy usulda o'qigan talabalar ( $n=82$ ) 89% aniqlik ko'rsatgan ( $p<0.001$ )<sup>[15]</sup>. Estai va Bunt sistematik sharhida anatomik preparatlar bilan ishlash tajribasi klinik amaliyotda 40–50% muhimroq ko'nikma ekanligi ta'kidlangan<sup>[4]</sup>. Virtual vositalar nazariy bilimni yaxshi yetkazsa-da, taktil va fazoviy tajribani to'liq almashtira olmaydi.

Texnik infrastruktura muammolari ham dolzarb. Raqamli tafovut (digital divide) masofaviy ta'limning muhim cheklovidir. OECD (2021) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda talabalarning 35–40% yuqori sifatli internet aloqasiga ega emas. O'zbekiston kontekstida bu muammo ayniqsa qishloq hududlarda dolzarbdir. Masofaviy ta'lim psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham murakkablashadi. Bączek va boshqalar COVID-19 davrida talabalar orasida o'tkazgan tadqiqotda ( $n=804$ ) respondentlarning 64.4% masofaviy ta'lim davomida stress va tashvish darajasining oshganini, 58.9% esa motivatsiyaning pasayganini qayd etgan<sup>[2]</sup>.

Masofaviy ta'lim jarayonida anatomiyani o'qitishni yanada mukammallashtirish, talabalar bilimni mustahkamlash maqsadida blended learning (aralash ta'lim) modelini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Blended learning – bu an'anaviy yuzma-yuz va masofaviy ta'lim elementlarini maqsadga muvofiq birlashtirgan ta'lim modeli<sup>[5]</sup>. Anatomiya va fiziologiya kontekstida bu model nazariy qismni onlayn, amaliy mashg'ulotlarni esa auditoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Rowe va boshqalar blended learning modelini qo'llagan tibbiy talabalar ( $n=156$ ) bilan to'liq an'anaviy usulda o'qigan talabalar ( $n=142$ ) o'rtasida qiyosiy tadqiqot o'tkazgan. Natijalarga ko'ra nazariy bilimlar bo'yicha farq yo'q ( $p=0.36$ ), amaliy ko'nikmalar bo'yicha farq yo'q ( $p=0.28$ ), talabalar qoniqishi esa blended learning guruhida yuqoriroq bo'lgan ( $p<0.05$ ), vaqt samaradorligi esa 25% tejangan<sup>[14]</sup>. Chen va Jones blended learning modelini anatomiya kursida tatbiq etish samaradorligini o'rgangan va talabalar yutuqlarida statistik jihatdan sezilarli farq topmagan ( $p=0.58$ ), bu esa blended modelning an'anaviy modelga alternativa bo'la olishini tasdiqlaydi<sup>[3]</sup>.

Adabiyotlar tahlili asosida anatomiya va fiziologiya uchun optimal blended learning modeli quyidagicha belgilanadi: onlayn komponent (60–70%) – nazariy ma'ruzalar (video format), 3D anatomik modellar bilan ishlash, virtual fiziologiya laboratoriyasi, onlayn testlar va o'z-o'zini baholash, forum va guruh muhokamalari; yuzma-yuz komponent (30–40%) – anatomik preparatlar bilan ishlash, amaliy ko'nikmalar mashqlari, klinik holatlar tahlili (case studies), peer teaching va guruh ishlari, amaliy baholash. Bu nisbat Hrastinski tavsiyalariga mos keladi, u amaliy ko'nikmalar muhim bo'lgan fanlarda yuzma-yuz komponent kamida 30% bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>[6]</sup>.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. Nazariy bilimlar yetkazishda masofaviy ta'lim samarali, chunki ko'plab tadqiqotlar nazariy bilimlarni o'zlashtirishda masofaviy va an'anaviy metodlar o'rtasida sezilarli farq yo'qligini ko'rsatadi;
2. Amaliy ko'nikmalar uchun yuzma-yuz ta'lim zarur, chunki anatomik preparatlar bilan ishlash, palpatsiya va boshqa amaliy ko'nikmalar faqat bevosita tajriba orqali rivojlanadi;



3. Blended learning optimal yechim bo'lib, nazariy va amaliy komponentlarni maqsadga muvofiq birlashtirish eng samarali natijalarni beradi;
4. Individual farqlar muhim ahamiyatga ega, chunki talabalar o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, texnik imkoniyatlar va o'rganish uslubi masofaviy ta'lim muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Masofaviy ta'lim sharoitida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish zamonaviy pedagogika oldida turgan muhim vazifadir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Masofaviy ta'lim nazariy bilimlarni samarali yetkazish imkonini beradi va zamonaviy raqamli vositalar an'anaviy usullar bilan raqobatlasha oladi.
2. Biroq, amaliy ko'nikmalarni to'liq rivojlantirish uchun bevosita anatomik preparatlar bilan ishlash tajribasi zarur bo'lib qolmoqda. Virtual vositalar bu tajribani to'liq almashtira olmaydi.
3. Blended learning modeli – nazariy va amaliy komponentlarni optimal birlashtirish – anatomiya va fiziologiyani o'qitishda eng maqsadga muvofiq yondashuv hisoblanadi.
4. Masofaviy ta'limning samaradorligi ko'p omillarga bog'liq: pedagogik dizayn, texnologik ta'minot, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, talabalarning individual xususiyatlari.

Kelajakda sun'iy intellekt, virtual haqiqat, haptik texnologiyalar va boshqa innovatsiyalar masofaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirishi kutilmoqda. Biroq, hozirgi sharoitda blended learning modeli anatomiya va fiziologiya kabi fundamental tibbiy fanlar uchun eng samarali yechim bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston kontekstida ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun tegishli infrastruktura, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari va sifatli raqamli resurslar yaratish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Achike, F. I., & Nain, N. (2015). Evaluating the use of virtual biochemistry laboratory in enhancing students' performance. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 176, 968–976.
2. Bączek, M., Zagańczyk-Bączek, M., Szpringer, M., Jaroszyński, A., & Woźakowska-Kapłon, B. (2021). Students' perception of online learning during the COVID-19 pandemic. *Medicine*, 100(7), e24821.
3. Chen, F., & Jones, D. (2007). Teaching basic surgical skills using online video demonstrations. *Journal of Surgical Education*, 64(4), 203–208.
4. Estai, M., & Bunt, S. (2016). Best teaching practices in anatomy education: A critical review. *Annals of Anatomy*, 208, 151–157.
5. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs* (pp. 3–21). Pfeiffer.
6. Hrastinski, S. (2019). What do we mean by blended learning? *TechTrends*, 63(5), 564–569.
7. Kay, R. H. (2012). Exploring the use of video podcasts in education: A comprehensive review of the literature. *Computers in Human Behavior*, 28(3), 820–831.
8. Khot, Z., Quinlan, K., Norman, G. R., & Wainman, B. (2013). The relative effectiveness of computer-based and traditional resources for education in anatomy. *Anatomical Sciences Education*, 6(4), 211–215.
9. Limniou, M., Roberts, D., & Papadopoulos, N. (2009). Full immersive virtual environment CAVE™ in chemistry education. *Computers & Education*, 51(2), 584–593.
10. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
11. McGarr, O., & Johnston, K. (2021). Exploring the evolution of educational technology policy in Ireland: From catching up to pedagogical innovation. *Educational Technology Research and Development*, 69(3), 1983–2004.
12. Petersson, H., Sinkvist, D., Wang, C., & Smedby, Ö. (2009). Web-based interactive 3D visualization as a tool for improved anatomy learning. *Anatomical Sciences Education*, 2(2), 61–68.
13. Provo, J., Lamar, C., & Newby, T. (2002). Using a cross section to train veterinary anatomy: Impact of spatial skills on learning. *Journal of Research in Science Teaching*, 39(10), 967–981.
14. Rowe, M., Frantz, J., & Bozalek, V. (2012). The role of blended learning in the clinical education of healthcare students: A systematic review. *Medical Teacher*, 34(4), e216–e221.
15. Sugand, K., Abrahams, P., & Khurana, A. (2010). The anatomy of anatomy: A review for its modernization. *Anatomical Sciences Education*, 3(2), 83–93.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.